

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Monetar siyosatning strategik va taktik maqsadlari

Azimova Hulkar Egamberdiyevna

Стратегические и тактические цели монетарной политики

Азимова Хулкар Эгамбердиевна

Strategic and tactical objectives of monetary policy

Azimova Khulkar Egamberdievna

Received: May 7, 2025 Revised: May 9, 2025 ■ Accepted: May 12, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada monetar siyosatning strategik va taktik maqsadlari, uning mohiyati, foiz stavkalarini muvozanatlashtirish, bank tizimidagi likvidlik muammolari hamda muammolarni bartaraf etish yo'llari bayon etilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada monetar siyosatning strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirishni takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflar keltirilgan.
- **Kalit so'zlar.** monetar siyosat, fiskal siyosat, asosiy foiz stavka, pul massasi, taktik maqsadlar, strategik maqsadlar, pul-kredit siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, majburiy zahira talablari
- **Аннотация.** В статье описываются стратегические и тактические цели денежно-кредитной политики, ее сущность, балансировка процентных ставок, проблемы ликвидности в банковской системе и пути их устранения, а также дается их анализ на основе статистических данных. Кроме этого, в статье представлены выводы и предложения по совершенствованию реализации стратегических и тактических целей денежно-кредитной политики.
- **Ключевые слова.** монетарная политика, фискальная политика, процентная ставка, денежная масса, тактические цели, стратегические цели, макроэкономическая стабильность, обязательные резервные требования.
- **Abstract.** This article discusses the strategic and tactical objectives of monetary policy, its essence, the balancing of interest rates, liquidity issues in the banking system, and the ways to address these problems. The analysis is based on statistical data. Additionally, the article provides conclusions and recommendations for improving the implementation of strategic and tactical goals of monetary policy.
- **Keywords.** monetary policy, fiscal policy, key interest rate, money supply, tactical objectives, strategic objectives, monetary-credit policy, macroeconomic stability, reserve requirements.

KIRISH

Monetar siyosat markaziy bank tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati bo'lib, monetar siyosat orqali muomaladagi pul massasini tartibga solish orqali narxlar barqarorligi, inflyatsiya, real ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o'sishni mustahkamlashga yo'naltirilgan barcha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Umumdavlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy va ajralmas qismi sifatida monetar siyosat mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallab kelganligi, jahon amaliyotida ham isbotlanib, monetar siyosat bugungi kunda ham iqtisodiyotda o'z samarasini bermiqda. Inflyatsiyani nazorat qilish monetar siyosatning muhim vazifasi hisoblanadi. Mazkur jarayon natijasida iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish, pul taklifi va talabni muvozanatlash orqali amalga oshiriladi.

Inflyatsiya darajasini nazorat qilish uchun markaziy bank turli vositalardan foydalanadi, jumladan:

- bank foiz stavkalarini o'zgartirish;
- o'zaro muvozanatli pul siyosatini yuritish;
- valyuta kursini boshqarish;

Ayni vaqtda monetar siyosatdagi taktik maqsadlar, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan qisqa muddatli strategiyalarni o'z ichiga oladi. Mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan taktikalarni o'z ichiga olib ustuvor ahamiyat kasb etadi. Har bir iqtisodiy o'zgarishlarga javob sifatida, monetar siyosat taktikalarni o'z ichiga oladi, bu esa barqaror iqtisodiy muhitni yaratishga yordam beradi. Monetar siyosat inflyatsiyani nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, monetar siyosat asosan, pul taklifi va foiz stavkalarini o'zgartirish orqali inflyatsiyani boshqaradi. Avvalombor, moliya bozoridagi mo'tadil darajani ta'minlab, iqtisodiy o'sishga yordam beradi, bu jarayonda asosiy maqsad iqtisodiy barqarorlikni saqlashga qaratilgandir.

Markaziy bank monetar siyosatni amalga oshirish va uning maqsadlariga

erishishda yetarli darajada samara berishi uchun bir yoki bir-nechta

maqsadli ko'rsatkichlarni tanlab olishi muhim o'rin egallaydi. Maqsadga muvofiq ravishda markaziy bank monetar siyosatning oraliq maqsadi sifatida pul agregatlaridan, jumladan, pul massasi yoki pul bazasidan foydalanadi.

Monetar siyosatni markaziy bank amalga oshirayotganda yakkayu-yagona

monetar ko'rsatkichga asoslanmasligi kerak. Chunki har bir ko'rsatkich muayyan

kamchiliklarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ular iqtisodiyotdagi ma'lumotlarni to'liq

o'zida aks ettira olmaydi. Masalan, markaziy bank monetar ko'rsatkichlardan biri -

pul massasi orqali iqtisodiyotda pulga bo'lgan real talab va taklifni aniqlash,

monetizatsiya darajasi, pulning aylanish tezligi yoki pul massasining inflyatsiyaga almashuv kursiga, foiz stavkalariga va umuman iqtisodiyotga qay darajada ta'sir

etishi kabi ayrim masalalarni aniqlashi dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda markaziy bank pul-kredit siyosatini yuritishda ehtiyotkorona yondashuvdan foydalanib kelmoqdaki, bunda pul-kredit sharoitlarini bir maromda qat'iy lashtirib borish nazarda tutilgan. Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari dasturiy hujjat hisoblanib, u joriy makroiqtisodiy holat va tashqi iqtisodiy vaziyat tahlili, shuningdek tashqi va ichki sharoitlarning rivojlanish prognozlarini asosida ishlab chiqilgan. Mazkur hujjat o'z ichiga, o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosatining maqsad va tamoyillari, pul-kredit sohasida amalga oshirilgan ishlar tahlili va kutilayotgan natijalar, makroiqtisodiy rivojlanish darajasi hamda o'rta muddatli istiqbolda pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish choralari qamrab olgan. Pul-kredit siyosatining [1] 2025-2027-yillarga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari joriy makroiqtisodiy sharoitlarning o'rta muddatli istiqboldagi rivojlanishi bo'yicha markaziy bankning qarashlarini ifodalab, ushbu davrda narxlar barqarorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan pul-kredit siyosati choralari belgilangan bo'lib, xatarlarning inflyatsiyaga ehtimoliy ta'sirlaridan kelib chiqib, pul-kredit siyosatining kelgusi yillarga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "2022-yilda yillik inflatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko'rib, keyinchalik inflyatsiya va davlat budjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab borilishi hamda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, [2] 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi kabi vazifalarning belgilanganligi markaziy bankning monetar siyosatini samarali olib borishning nazariy hamda uslubiy jihatlarini takomillashtirish muhimligini ko'rsatib beradi. Markaziy bankning monetar siyosatning strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirib borishi masalasi dolzarb mavzu bo'lib, iqtisodiyotda narxlar barqarorligiga erishish, inflyatsiyani mo'tadil darajada saqlab turishda muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan ushbu masala bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar bajarilgan bo'lib, markaziy bankning

monetar siyosatining o'ziga xos jihatlari, shuningdek uning strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirilishi masalalari va uning ayrim masalalari bo'yicha ilmiy ishlar bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan Yaxshiyeva M.T. tomonidan (2019)[3] markaziy bank mamlakatning bank tizimini muhim bo'g'ini hisoblanib, u monetar (pul-kredit) siyosatini yurituvchi asosiy sub'yekti ekanligi, mamlakatning maqsadi va uni strategiyasidan kelib chiqib markaziy bank ma'lum monetar rejimini yuritishi, ushbu tanlangan bir ko'rsatkich "nominal langar" yoki maqsadli ko'rsatkich belgilanib unga erishish uchun harakat qilinishi, iqtisodiy adabiyotlar "nominal langar" sifatida YaIM, pul massasi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi va boshqa ko'rsatkichlar mo'ljallanish sifatida qabul qilinishi yo'llari kabi masalalar yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqot ishida monetar siyosatning strategik va taktik maqsadlarining ahamiyatini ochib berish jarayonida induktiv va deduktiv, mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ham monetar siyosat asosiy rol o'ynaydi, chunki u pul ta'minoti va foiz stavkalarini boshqarish orqali iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi. Monetar siyosatning strategik yondashuvlari, ya'ni pul siyosatini yumshatish yoki qattiqlashtirish, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Monetar siyosatning maqsadli ko'rsatkichlari iqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasi va iqtisodiy o'sish kabi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Har doim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyatini kuzatish, inflyatsiyani nazorat qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda monetar siyosat ko'rsatkichlari, ya'ni inflyatsiya darajasi, kredit foizlari va valyuta kursi kabi indikatorlar orqali baholanadi. Maqsadli ko'rsatkichlar esa monetar siyosatning natijalarini baholash va uning samaradorligini aniqlash uchun ishlatiladigan mezon hisoblanadi. Xususan, markaziy bank inflyatsiyani jilovlash hamda bank tizimining moliyaviy barqarorligini maqbul darajada ta'minlab borish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning banklar kapitali va likvidligiga salbiy ta'sirlarini minimallashtirishga yo'naltirilgan o'zaro muvofiqlashgan pul-kredit va makroprudensial siyosat olib borgan. Endi statistik ma'lumotlarni tahlil qilganimizda, 2023-yilda ham "nisbatan qat'iy" pul-kredit sharoitlari ta'minlanib, ijobiy real foiz stavkalari shakllangan. Xususan, tijorat banklarida milliy

valyutadagi depozitlar qoldig'i 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, qariyb 170 trln so'mni, jismoniy shaxslarning depozitlari qoldig'i 1,4 barobarga o'sib, 64 trln so'mni, yuridik shaxslarning depozitlari qoldig'i esa 1,2 barobarga oshib, 106 trln so'mni tashkil etgan. [4] Inflyatsiya darajasi hisobot yilining I choragidan boshlab pasaygan bo'lib, 2023-yilning mart oyidan asosiy stavka 15 foizdan 14 foizga tushgan. Ushbu chora-tadbirlar pul-kredit sohasidagi inflyatsiya darajasi o'sishini jilovlashga imkon berdi. Natijada 2023-yil yakunlari bo'yicha inflyatsiya darajasi 5,3 foiz bandga pasayib, 8,5 foizni tashkil etgan. 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining (YaIM) o'sishi 5,3% atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda (Jahon banki). 2019-2023 yillarda o'sish sur'atlari [5] o'rtacha 4-5% atrofida bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi markaziy bankning asosiy vazifalari orasida inflatsiyani nazorat qilish, milliy valyutani barqarorlashtirish va moliyaviy tizimni mustahkamlash hisoblanadi. Markaziy bank pul siyosatining maqsadlariga erishish uchun o'zining foiz stavkalarini, valyuta almashish siyosatini va boshqa vositalarni boshqaradi. 2025-yilda inflyatsiya darajasi 8-10% oralig'ida bo'lishi rejalashtirilgan. O'tgan yillar mobaynida inflyatsiya nisbatan yuqori bo'lib, 2022-yilda 12-14% atrofida qayd etilgan. 2023-yilda global YaIM o'sishi 2.6% ni tashkil etgan, bu 2022-yildagi 3.1% dan past demakdir. 2025-yil uchun prognoz 2.4% atrofida bo'lishi. 2024-yilda markaziy bank qattiq pul-kredit siyosatini davom ettirishiga qaramay, inflyatsiya barqaror darajada qolmoqda. Yanvar oyida inflyatsiya 9,1% ga tushgan bo'lsa ham, yil davomida 10% atrofida saqlanishi prognoz qilingan edi.

Darhaqiqat, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash mamlakat iqtisodiyotining asosi hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun mamlakat o'zining fiskal (soliq-byudjet) va monetar (pul-kredit) siyosatini yuritadi. Monetar siyosatni fiskal siyosat bilan muvofiqlashtirish deganda, markaziy bankning pul-kredit siyosati va hukumatning soliq-byudjet siyosati o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash tushuniladi. Bu inflyatsiyani nazorat qilish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Iqtisodiy siyosatda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning muvaffaqiyatini kuzatish, inflyatsiyani nazorat qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Inflyatsiyani nazorat qilish monetar siyosatning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, narxlarning oshishini oldini olish va iste'molchilar ishonchini oshirishga qaratilgan. Maqsadli ko'rsatkichlar sifatida inflyatsiya darajasi va pul massasi kabi o'lchovlari qo'llaniladi. Iqtisodiy o'sish mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlaydi, ish o'rinlarini yaratadi va aholi farovonligini oshirishda munosib ahamiyat egallaydi. Quyida 2019-2022 yillarda asosiy foiz stavkasi va inflyatsiya darajasining o'zgarishini diagrammada aks etganligini ko'rishimiz



1-rasm 2019-2022 yillarda asosiy foiz stavkasi va inflyatsiya darajasining o'zgarishi [6]

mumkin.

Yuqoridagi rasm ma'lumotlariga asosan tahlil qilinganda, 2019 yilda inflyatsiya 15,2 % ni asosiy foiz stavka 16 % ni, 2020 yilda inflyatsiya 11,1% ni asosiy foiz stavka 14 % ni, 2021 yilda inflyatsiya 10,0% ni asosiy foiz stavka 14% ni, 2022 yilda inflyatsiya 12,3%ni asosiy foiz stavka 15%ni tashkil etgan [1], ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki markaziy bank tomonidan inflyatsiyadan asosiy foiz stavkani biroz yuqoriroq ushlab turishi amaliyoti qo'llanilgan. Markaziy bankning inflyatsiyani nazorat qilish orqali monetar siyosat iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiradi. Bunda investorlar va iste'molchilar ishonchi yanada oshib, iqtisodiy faoliyatni faollashtiradi. Shu o'qinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, monetar siyosatning strategik yondashuvlari tarkibida pul siyosatini yumshatish yoki qattiqlashtirish, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Monetar siyosatning maqsadli ko'rsatkichlari asosida birinchi navbatda iqtisodiy barqarorlikka erishish, inflyatsiya darajasi va iqtisodiy o'sish kabi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Markaziy bankning maqsadli ko'rsatkichlari natijasida monetar siyosatning natijalarini baholash va uning samaradorligini aniqlashda mezon sifatida qo'llaniladi. Yalpi ichki mahsulot, ishsizlik darajasi, bandlik kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyatini kuzatish, inflyatsiyani nazorat qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda eng muhim rol o'ynaydi. Mamlakatda iqtisodiy o'sishning me'yorida ta'minlanishi oqibatida, avvalombor iqtisodiy barqarorlik ta'minlanib, bir qancha ish

o'rinlarini yaratishga imkon yaratadi va aholi farovonligini oshiradi. Yalpi ichki mahsulot o'sishi, ish haqi darajasi, investitsiyalar va iste'mol darajasi iqtisodiy o'sish uchun asosiy ko'rsatkichlar bo'lib, xizmat qiladi. Vaholanki, iqtisodiy o'sish iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, maqsadga muvofiq davlat dasturlari va xorijiy investitsiyalar orqali rag'batlantirilishi natijasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib xulosa sifatida aytish mumkinki, monetar siyosat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim bo'lib, bu esa inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda yordam beradi. Monetar siyosatning maqsadli ko'rsatkichlari inflyatsiya darajasi, ish o'rinlari soni va iqtisodiy o'sish sur'atlarini o'z ichiga olib, narxlar barqarorligini me'yorida ta'minlanishi aholi turmush tarzi yaxshilanishiga, eng muhimi aholi farovonligi kambag'allikni pasaytirishning eng maqbul mezon ekanligini taqozo etadi. Shuning uchun ham markaziy bank tomonidan monetar siyosatning strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirishi o'zining muhimligini ifodalaydi. O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatning muvaffaqiyatining amaliy ifodasi inflyatsiyani pasaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, strategik va taktik maqsadlarni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Azimova Hulkar Egamberdiyevna Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası katta o'qituvchisi / Азимова Хулкар Эгамбердиевна Старший преподаватель кафедры «Бухгалтерский учёт и аудит» - Каршинский государственный технический университет / Azimova Khulkar Egamberdievna Senior Lecturer, Department of Accounting and Auditing - Karshi State Technical University

► azimovakhulkar@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0007-4468-6533>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Markaziy bank boshqaruvining 2024-yil 31-oktyabrdagi yig'ilishida "Pul-kredit siyosatining 2025-yil va 2026-2027-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari"ning konseptual loyihasi
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022 yil 18.01.
- [3]. M.T.Yaxshiyeva Monetar siyosat nazariyasi.O'quv qo'llanma-T.TDUY,2019-95 bet
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti haqida. Toshkent sh.,2024-yil 18-may,SQ-910-IV-son.
- [5]. <https://www.worldbank.org/ext/en/home>
- [6]. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.